

YURIDIK XIZMAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: SAMARA VA NATIJA

Kudratov Inomjon Sattarkulovich

**Adliya vazirligi, Yuridik xizmatlar faoliyatini
muvoqlashtirish boshqarmasi boshlig'i**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.16606175>

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati sohasidagi islohotlar yuridik xizmat xodimlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida ularga yuklatilgan asosiy vazifa va funksiyalar, huquq va majburiyatlar hamda imtiyozlar batafsil yoritilib, mazkur sohani yanada takomillashtirishga oid taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: yuridik xizmat, yuridik xizmat xodimi, attestatsiya, malaka oshirish, stajirovka, lavozimga tayinlash va ozod qilishni kelishish jarayoni.

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlash yuzasidan bir qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, davlat organlari va tashkilotlarida norma ijodkorligi, shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini amalga oshirishda ko'mak beradigan yuridik xizmatlar joriy etildi. Mazkur yuridik xizmatlar faoliyatini muvoqlashtirish, ularga uslubiy va metodik jihatdan ko'maklashish hamda tashkiliy-huquqiy shakllarini belgilash borasida bir qator ishlar bajarildi.

Shu bilan birga yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yuridik xizmat xodimlariga tegishli va zarur vakolatlar berildi.

Biroq, ushbu vakolatlar yuridik xizmat xodimlarining qonun buzilishini oldini olish hamda ular bo'yicha o'z vaqtida choralari ko'rishlari uchun yetarli va ta'sirchan bo'lmaganligi natijasida ish faoliyatida kutilgan samarani bermadi.

Shtat birliklarini belgilash me'yor va mezonlarining mavjud emasligi esa, o'z navbatida turli davlat organlari va tashkilotlarida yuridik xizmatlarning tashkiliy shtat tuzilmasini oqilona belgilashni ta'minlash imkonini bermadi.

Bundan tashqari, yuridik xizmat xodimlarining moddiy ta'minot darajasi mazkur sohaga oliy yuridik ma'lumot va amaliy tajribaga ega yuqori malakali kadrlarni jalb qilishga to'sqinlik qilishi bilan birgalikda, yuridik xizmatlar ishining sifatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi.

Bu esa o'z navbatida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash, demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda yuridik xizmatlarning roli va javobgarligini izchillik bilan yanada kuchaytirishni taqozo etdi.

Shu maqsadda mamlakatimizda yuridik xizmat sohasini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar olib borilib, sohani tartibga soluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va yetarlicha huquqiy baza yaratildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ – 2733-son "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qaror bilan yuridik xizmat xodimlari faoliyatining quyidagi beshta asosiy yo'nalishlari belgilab berildi:

- davlat organlari va tashkilotlarining huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish;

- davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish;

- davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida ularning tarkibiy tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish;

- davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etish;

- shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, davlat organlari va tashkilotlarining mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash.[1]

Shu bilan bir qatorda belgilab berilgan asosiy yo'nalishlarni sifatli bajarilishi uchun zarur va muhim funksiyalar belgilandi.

Bugungi kunda aholining, shu bilan birga davlat organlari va tashkilotlarida o'z faoliyatini olib borayotgan xodimlarning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirib borish juda muhim jarayon hisoblanadi.

O'z navbatida bu vazifa adliya organlarining zimmasiga yuklatilganligini ham alohida qayd etish zarur.

Shu nuqtai nazardan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash, demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda yuridik xizmatlarning rolini izchillik bilan kuchaytirishni taqozo etdi.

O'tgan davr mobaynida qarorda belgilangan yuridik xizmat sohasini takomillashtirishga qaratilgan bir qator vazifalar ijrosini ta'minlash borasida ishlar amalga oshirilganligini ham sanab o'tish joiz.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarida, shuningdek ularning hududiy tuzilmalarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan eng kam me'yor va mezonlarga asosan, majburiy tartibda yuridik xizmatlar tashkil etildi. Bunda yuridik xizmatning mavjud shtat birliklarini qisqartirilishiga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlab qo'yildi.[2]

Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlariga adliya organlari xodimlariga belgilangan martaba darajalarini berish, ko'p yillik xizmat uchun ustamalarini to'lash tartibi tatbiq etilishi ta'minlandi. Bunda yuridik xizmat xodimi faoliyat yuritayotgan tashkilotda qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan yuqori ustama belgilangan taqdirda, xuddi shu shakldagi ustama to'lash yuqori miqdor bo'yicha amalga oshirilishi hamda xarajatlar davlat organlari va tashkilotlarining mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilab qo'yildi.

Bugungi kunda yuridik xizmat xodimi sifatidagi mehnat staji xodim boshqa davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga ishga o'tganda martaba darajalari va ko'p yillik xizmat ustamalarini to'lash uchun mo'ljallangan mehnat staji hisobiga olinmoqda.

Yuridik xizmat sohasiga salohiyatli kadrlarni jalb qilish maqsadida davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlarining mazkur mutaxassislik bo'yicha uch yillik stajiga ega bo'lgan xodimlariga, litsenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs sifatida

malaka imtihonida tegishli stajirovka o'tmasdan ishtirok etish huquqi berildi.

Hozirda davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmat xodimlari har uch yilda kamida bir marta malakalarini oshirgan holda, Xuddi shu muddatda tegishli ravishda adliya organlarida attestatsiyadan o'tkazilmoqda.[3]

Shu bilan birga bir qator tartiblar o'rnatildiki, unga ko'ra endilikda:

birinchidan, davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari mazkur organlar va tashkilotlar ishtirokida vujudga keladigan nizolarni sudgacha hal etish yuzasidan majburiy tartibda choralarni ko'rmoqdalar;

ikkinchidan, buyruqlar, farmoyishlar, shartnomalar va yuridik xususiyatga ega bo'lgan boshqa hujjatlarning loyihalari huquqiy ekspertizasini amalga oshirish uchun majburiy tartibda yuridik xizmatga taqdim etilmoqda;

uchinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta'sir etadigan davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari yuzasidan majburiy tartibda yuridik xizmatning xulosasi olinishi yo'lga qo'yildi;

to'rtinchidan, davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakati yoki harakatsizligi yuzasidan berilgan shikoyatlar majburiy tartibda davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari tomonidan ham ko'rib chiqilmoqda;

beshinchidan, davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish masalalari majburiy tartibda adliya organlari bilan kelishilishi tartibi belgilandi;

oltinchidan, adliya organlari yuridik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik talablarini buzgan davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari hamda yuridik xizmatlari xodimlariga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega bo'ldi;

yettinchidan, davlat organlari va tashkilotlarida har yili yuridik xizmatlarning mazkur davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylik ta'minlanishi ahvoli to'g'risidagi hisoboti eshutilishi joriy etildi;

sakkizinchidan, yuridik xizmat xodimlari har chorakda sudgacha va sud tartibida davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar yuzasidan undirilgan summaning 5 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan ko'p bo'lmagan miqdorda mukofotlanadigan bo'ldi.

Alohida qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash, ularning xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirish bo'yicha maxsus vakolatli organi etib belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatini yanada rivojlanishi hamda samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish nafaqat jamiyatning barqaror rivojlanishi balki mamlakatimizning jahon hamjamiyatida o'z o'rnini yanada mustahkamlashi uchun ham zaruriy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi.

References:

Используемая Литература: Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son "Yuridik

xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-3098964>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi 250-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3189363>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 22-noyabrdagi 244-son "Yuridik xizmatlar xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularning malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-1274006>

4. Yuridik xizmat xodimini lavozimga tayinlash va ozod qilish masalalarini adliya organlari bilan kelishish hamda birinchi marta yuridik xizmat xodimi lavozimiga tayinlangan shaxslarning adliya organlarida stajirovkadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami: 3444, 2023-yil 5-iyul) // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6523027>

